SUMMARY. In this article, fantastic events in the novel «Cassandra's Tamga» by the great representative of Turkic peoples' literature, world-renowned writer Sh.Aitmatov, as well as global problems occurring today, are discussed.

YOSHLARNI MANAVIY –AXLOQIY TARBIYALASHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASI MEXANIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Berdimuratov Razatdin – *o'qituvchi*
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya, sport, sog'lom avlod , yoshlar, qadriyatlar, manaviy-axloqiy tarbiyalash, kuch, g'urur, g'olibta'lim-tarbiya, g'olib, xalqaro maydonlar.

Ключевые слова: физическая культура, спорт, здоровое поколение, молодежь, ценности, духовно-нравственное воспитание, сила, гордость, воспитание, победители, международные соревнования.

Key words: physical culture, sports, healthy generation, youth, values, spiritual and moral education, strength, pride, education, winners, international competitions.

Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Har qanday mamlakatning taraqqiy etishi va yanada rivojlanishi, qisqa qilib aytganda ertangi kuni bevosita ulg'ayib kelayotgan yoshlarga bog'liq. Ayniqsa yoshlar dunyo aholisining tez va shiddat bilan ko'payib borayotgan qismini tashkil topadi. Qayd etish joizki, hozirgi vaqtda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmoqda. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan vaqtdan boshlab unda belgilangan normalarni, shuningdek jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash amaliyotida tajriba to'plandi, bu esa jismoniy tarbiya va sport sohasidagi huquqiy mexanizmlarning takomillashtirilishini talab qiladi.

Jumladan, Qonunga muvofiq, faoliyatning asosiy turi sifatida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs, shuningdek boshqa yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmasi jismoniy tarbiya va sport tashkilotidir. Jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar aholining turli guruhlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil qilishda ishtirok etadi, sportchilarni va sport musobaqalarida hamda o'quv-mashq tadbirlarida ishtirok etuvchi boshqa mutaxassislarni tayyorlash, ularning sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlash uchun shart-sharoitlar yaratadi, sportchilar va murabbiylarga mashg'ulot uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi, shuningdek ushbu mutaxassislarga sport natijalariga erishishi uchun boshqacha tarzda ko'maklashadi. Jismoniy tarbiya va sportning tarbiyaviy imkoniyatlari ulkandir. Emotsional, jismoniy va ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan faoliyatning bu turlari xalqning ijobiy tajribalarini, xarakterning qimmatli hislatlarini, shaxs xususiyatlarini shakllantirish imkonini beradi.

O'smirlar, o'spirinlar, qizlar, yosh yigitlar sport bilan shug'ullanar ekanlar, katta jismoniy va ruhiy yuklanishni boshdan kechiradilar.

Bunday paytlarda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengib o'tish irodani tarbiyalash uchun sharoit yaratadi. Pedagog-murabbiylar tomonidan maqsadga qaratilgan va to'g'ri boshqarilgan sport mashg'ulotlari jarayoni qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgatadi, Vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, qat'iyatlik, do'stona qo'llab-quvvatlashni namoyon etishni talab qiladi. Sport va qadriyatlar sog'lom avlod tarbiyasining muhim omillaridan biridir. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida shakllanishi va uning istiqlol sari dadil borishi ijtimoiy-iqtisodiy, qurilish, raqamli texnologiya, siyosiy, madaniy ma'rifiy, sog'liqni saqlash va turizm sohalarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Bu yo'lda sog'liqni saqlash, fan va innovatsiyalar, madaniyat, texnika, iqtisod, ta'lim-tarbiya, maktabgacha va maktab, jismoniy tarbiya va sport hamda boshqa sohalarda chuqur islohotlar olib bormoqda. Malumki bu

jarayonlarni hozirgi kun talablari asosida tashkil qilish va boshqarish asosiy maqsad hisoblanadi. Mamlakatimiz aholisining salomatligini mustahkamlab borish, o‘quvchi –yoshlar, talabalarning jismoniy va ma’naviy kamolotini oshirish, sog‘lom avlod tarbiyasini takomillashtirish masalalari kelajagi buyuk davlat qurishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport xizmati ko‘rsatish tashkilotlarida Yurtimizda jismoniy tarbiya va sport, xalq milliy o‘yinlari ta’lim tizimidan asosiy ta’lim-tarbiya vositalari sifatida mutahkam o‘rin olmoqda. Ta’kidlash joizki, aholinnng salomatligini mustahkamlash maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlarining hayotga tatbiq qilinishi, o‘quvchi-yoshlar va talabalarning turli sport musobaqalari, "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada", sport o‘yinlari, xalq milliy o‘yinlari festivallari hamda aholi istiqomat joylari, mehnat jamoalarida spartakiadalar, Vazirlar, viloyat, tuman prokurorlari, DXX rayisi, xokimlari kuboklari va birinchiliklarning muntazam tashkil etilishi e’tiborga molik ishdir. Barcha hududlar va markaziy shaharlarda yirik sport inshootlari qad ko‘tarmoqda, yangidan barpo etilgan sport maktablari, litseylar, professional ta’lim texnikumlari tashkil qilinmoqda. Sport jamoalarining turlari va sonlari tobora oshmoqda. Bunda ommaviy sog‘lomlashtiruvchi va sport mahoratlarini oshiruvchi tadbirlarni maqsadli tashkil qilish mutaxassislar, jamoat idoralari va homiylardan katta tashkilotchilik, etibor talab etadi. O‘zbekiston sportchilariga xalqaro maydonlar eshigi keng ochildi. Sportchimiz O‘zbekiston chempionatida g‘olib chiqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri jahon chempionatiga, 2-o‘rin sohiblari esa Osiyo chempionati bahslariga chiqishmoqda. Vatan, g‘urur, millat obro‘si, bayroqning baland hilpirashi hamda madhiyamiz baralla yangrashi, ota-ona duosi, el-yurt mehri, ustozlar ishonchi-aynan mana shu muqaddas tuyg‘ularni istiqlol tufayli teranroq his qilmoqdamiz. Aynan mana shu tuyg‘ular sportchiga ko‘pincha kuch beradi, uni qudratliroq qiladi. Mamlakatimizda sport sohasiga berilayotgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani bunday muvaffaqiyatlarning hamda qurayotgan demokratik jamiyatimizga munosib jismoniy va ma’naviy sog‘lom, hech kimdan kam bo‘lmagan komil avlodni tarbiyalashning muhim omili bo‘lib xizmat qilmoqda. Sportga rahbarlik qilish davlat darajasida amalga oshiriladi. U asosan ikki qismdan bazaviy va maxsus xizmat qismlaridan ibora bo‘lib, bular uning samaradorli ishlashini ta’minlaydi.

1. Bazaviy qismga sport musobaqalari kiradi.

2. Maxsus xizmat qismiga - sport mashqi. Sportchilarni saralash, tayyorlash hakamlik va boshqalardan iborat.

Sport musobaqasi maqsadni belgilaydi va maxsus xizmatlarni yaxlit faoliyatga birlashtiradi. Sportning funksional tuzilishi ana shunga asoslanadi va quyidagilardan iborat:

- Sport musobaqalari
- Sport musobaqalarini takomillashirish (musobaqalarning qoidalari, nizomi, taqvimi, hakamlar, tashkilotchilar va h.k.)
- Sport mashqi
- Sportchilarni tanlash va o‘rinbosarlar tayyorlash
- Ilmiy-uslubiy ta’minot va h.k

Hozirgi zamon sporti insonni nafaqat katta jismoniy kuch sohibi, shu bilan birga mo‘jizakor ma’naviy siymo ekanligini ham namoyon etmoqda. Insonning jismoniy kamoloti, ma’naviyati yetukligi, aqliy, ruhiy yuksakligi sport bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Sportchilarni ma’naviy, ilmiy, ahloqiy, estetik jihatdan tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport murabbiylarining, ota-onalarning, jamoa raxbarlarining o‘rni kattadir. Agar jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ishlar muntazam olib borilsa, unda jismoniy tarbiya va sport faoliyatida, ishtirok etish yoshlarni ijtimoiy ishlarga hamda ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga ko‘maklashadi.

Sport bilan shug‘ullanishni dars va mehnat bilan birga qo‘shib olib borish qiyin. Shu bois uyushganlik, intizomlilikni tarbiyalash, qat’iy tartibga o‘rgatish sportchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarda muhim o‘rin tutadi. Bunda albatta ustoz-murabbiylarning o‘rni bo‘lakdir. Sportchilar bilan tarbiyaviy ishlar olib borayotganda sport faoliyati hamda jamiyatning, uning madaniyatini, kishilarning sog‘lom-turmush tarzini takomillashtirish vazifalari bilan aloqadorligini tushuntirishga muhim o‘rin ajratilishi lozim.

Sport bilan shug‘ullanish ijtimoiy maqsadga egadir, jumladan, ular: - unumli mehnatga va Vatanni himoya qilishga tayyorlik;

- jismoniy, irodaviy hamda ahlokiy fazilatlarni har tomonlama rivojlantirish;
- jismoniy tarbiya va sport uchun to‘laqonli bo‘sh vaqtni tashkil qilish;
- jamoa faoliyat malakalarini hosil qilish uchun shart-sharoitni ta’minlashdir.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog‘lig‘ini mustahkamlashga ko‘maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga

joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo‘yicha yuqori natijalarni ta’minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va murabbiylar uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud.

Tadqiqod ishimizdan kelib chiqib quyidagilarni tavsiya etamiz:

- yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, va ularni jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan sport maktablariga jalb etish,
- hududiy ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlarida sport tibbiyoti (tramatolog, dermatolog, sport psixologi v.blar) bo‘limlarini tashkil etish;
- sportchilarining o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarini tashkil etish va ularga tashkiliy-uslubiy yordam ko‘rsatish;
- moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- Respublika va xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishlarini ta’minlash;
- erishilgan natijalarni chuqur tahlil qilish va tizimli monitoring ishlarini olib borish;

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, mamlakatimizning barcha hududlarida sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma’naviy sog‘lomlikning asosi ekanini targ‘ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o‘z qobiliyat va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonuni 2015 yil 4 sentabr, O‘RQ-394-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
3. Nurmuhammedov K.I. Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, Toshkent , 1991 yil.

REZYUME. Jismoniy tarbiya va sport, qadriyatlar sog‘lom avlod tarbiyasining muhim omillaridan biridir. Mamlakatimiz sportchilarining g‘alabalari o‘sib kelayotgan farzandlarimiz qalbida o‘z xalqi, yurti bilan faxrlanish tuyg‘ularini uyg‘otmoqda. Ushbu maqolada yoshlarni manaviy-axloqiy tarbiyalashga qaratilgan ma’lumotlar bilan boyitilgan.

РЕЗЮМЕ. Физическая культура и спорт, ценности считаются одним из важнейших факторов воспитания здорового поколения. Победы спортсменов нашей страны пробуждают в сердцах наших детей чувство гордости за свой народ и родину. В этой статье содержится информация, направленная на духовно-нравственное воспитание молодежи.

SUMMARY. Physical culture and sports, values are considered one of the important factors in raising a healthy generation. The victories of the athletes of our country awaken in the hearts of our children, a sense of pride in their people and homeland. This article contains information aimed at the spiritual and moral education of young people.

UDK: 404.3-44/46

CHET TILLARNI YANGI USULLARDA O‘RGATISHNING ASOSIY VAZIFALARI

R.K.Dauletbaeva – *o‘qituvchi*
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch so‘zlar: grammatik, pedagogik texnologiya, so‘zlar, birliklar, tarjima, dars jarayoni, qiyosiy o‘rganish, xorijiy til.

Ключевые слова: грамматика, педагогическая технология, слова, единицы, перевод, ход урока, сравнительное исследование, иностранный язык.

Key words: grammar, pedagogical technology, words, units, translation, lesson progress, comparative research, foreign language.

Chet tillarni, umuman ona tilidan boshqa tillarni qiyosiy turda o‘rganish ahamiyatining o‘sishiga bog‘liq ularni chuqurroq tadqiq qilish zarurligi kelib chiqadi. Sababi har qanday xorijiy